

PSIXIK RIVOJLANISH VA UNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOSI

Xolmurotova Mahfuza

Qo'ziboyeva Rahima

*Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich
talabalari*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi*

Kalit so'zlar: *psixika, rivojlanish, shaxs, omillar, yosh davrlari, axloq, ijtimoiy muhit.*

Inson psixik funksiyalarining rivojlanish mohiyati shundan iboratki, ular bolaning ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish jarayonida rivojlanadi. Bola insonlar orasida, insoniy predmetlar hamda munosabatlar dunyosida olamga keladi va yashaydi. Bu predmet va munosabatlarda esa ijtimoiy amaliyot tajribasi qayd etilgan. Bolaning rivojlanishi esa mana shu tajribani o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon kattalar tomonidan doimiy rahbarlik qilish sharoitlarida, ya'ni ta'lim, tarbiya orqali amalga oshiriladi. Insonda biologik va ijtimoiy tomonlar munosabati haqidagi masala psixologiyada dialektik ta'limotga asosan hal qilinadi. Bu ta'limotga binoan inson "barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat". Dialektik materializm insonga ijtimoiy-tarixiy mavjudot sifatida, shu bilan bir vaqtda tabiatning bir bo'lagi, deb qaraydi. Inson biologik va ijtimoiy tomonlar munosabati haqidagi masala psixologiyada dialektik ta'limotga asosan hal qilinadi. Bu ta'limotga binoan inson "barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat". Dialektik materializm insonga ijtimoiy-tarixiy mavjudot sifatida, shu bilan bir vaqtda tabiatning bir bo'lagi, deb qaraydi. Inson-biosotsial mavjudot. Shuning uchun ham uning psixik taraqqiyotiga ikki asosiy omil:

1. Biologik tabiiy.
2. Ijtimoiy-hayot sharoitlari, jamiyat tomonidan tashkil etiladigan ta'lim va tarbiya ta'sir ko'rsatadi.

Biologik oqim namoyondalari insondagi tug'ma, hayotiy jarayonlarni uni rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir qiladi, deb tan oladilar. Sotsial oqim namoyondalari esa, aksincha, asosiy omil -tashqi ta'sir, deb hisoblaydilar va biologik faktorning rolini inkor etadilar. Nerv sistemasi, sezgi organlari, bosh miyaning tabiiy, tug'ma psixofiziologik va anotomik xususiyatlari layoqat deb

ataladi. Layoqat asosida esa insoniy, intellektual xususiyatlar, shakllanadi va rivojlanadi.

Bolaning psixik taraqqiyotiga tabiiy muhit muayyan ta'sir ko'rsatadi. Ammo bolaning psixik taraqqiyotiga uning insoniy jamiyatidagi hayoti asosiy turtki beradi. Boshqa kishilar bilan muloqotda bo'lmasa, bolada psixik taraqqiyot ham bo'lmaydi. Bunga misol, hayvonlar orasida yashab, tarbiyalangan bola: (nutqi rivojlanmagan, aqliy qobiliyatlari yo'q insoniy his-tuyg'u, o'z-o'zini anglash mavjud emas).

Rivojlanish jarayonida bola shaxsining o'zgarishi ham ro'y beradi. Bu o'zgarishlarni 3 ta guruhga bo'lish mumkin.

1. Shaxs yo'nalishining rivojlanishi.
2. Faoliyatlarning psixologik strukturasiidagi xususiyatlar.
3. Ong mexanizmlarining rivojlanish darajasi.

Rivojlanish jarayonida bolalarda shakllanuvchi motivlar turli-tumandir. Shunga muvofiq ularning yo'nalishi yetakchilik qiladi: bu bolalar uchun yaxshi o'qish, o'qituvchi talabalarini bajarish muhimdir, ularni o'zlashtirish baholari tashvishlantiradi. Boshqa bolalar o'zlarining bilishga bo'lgan yo'nalishlari bilan ajralib turadilar. Ular masalalarni yechish, yangi bilimlar olishni yoqtiradilar. Biroq barcha predmetlarga ham o'qituvchilar bir xilda munosabatda bo'lmaydilar. Ular uchun baho emas, darslarning qiziqarliligi muhimdir. Bolalarning psixik jihatidan o'sishida ta'lim va tarbiya g'oyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi XIX asrlarning o'rtalaridan tobora ko'p ta'kidlanib boshlandi. Bolaning psixikasining o'sishi bilan ta'lim va tarbiyaning o'zaro munosabati haqidagi masalalarini hal etishga urinayotgan nazariyalar hozir ko'p topiladi. Hozirgi pedagogika va psixologiyada shu masalaga doir uch xil nazariya bor. Ulardan birida ta'lim-tarbiya va taraqqiyot jarayonlari bir-biridan mustaqil mavjuddir, degan g'oya ilg'a suriladi. Ikkinchi nazariyada ta'lim-tarbiya ayni vaqtda taraqqiyotidir, ya'ni ta'lim bilan taraqqiyotning o'rtasida asos e'tibori bilan sezilarli tafovut yo'qdir, deb da'vo qilinadi. Nihoyat, uchinchi xil nazariya bo'yicha ta'lim-tarbiya va taraqqiyot jarayonlari, garchi boshqa-boshqa jarayonlar bo'lsa ham, bir-biriga mos kelar va bir-biriga ta'sir o'tkazar ekan.

Nemis psixologi V. Shtern ta'lim psixik taraqqiyotning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, bola tomonidan narsalar bilan tanishish va ularni bilib olish o'z-o'zidan amalga oshadigan taraqqiyotga moslashadi.

Bunga qarama-qarshi fikrni rus psixologi L.S. Vigotskiy bildiradi. U bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchi roli haqidagi qoidani

birinchi bo'lib ilgari surdi. Uning fikricha, ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtiradi.

Birinchi fikrga binoan, ta'lim uchun imkoniyat etguncha, aqliy jihatidan yetilish jarayoni kelguncha, passiv ravishda kutib turish lozim.

Ta'lim yetakchilik ro'lini bajaradi. Ikkala jarayon bir-biri bilan bog'liq: rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga stimuly beradi, rivojlanishni o'z orqasidan ergashtirib boradi. Lekin rivojlanishga stimuly bo'lish bilan bir vaqtda ta'lim o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan taraqqiyot darajasining xususiyatlarini hisobga oladi.

Shuningdek, L.S.Vigotskiyning taraqqiyotning ikki zonasi haqidagi g'oyasi ham rivojlanish jarayonini boshqarish uchun katta ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiy bola taraqqiyotining ikki zonasini ajratib ko'rsatadi:

1. Aktual taraqqiyot zonasi.

2. Yaqin kelajak taraqqiyot zonasi.

Agar bola biror ishni kattalar yordami bilan bajara olsa, bu uning yaqin rivojlanish darajasi, zonasidan dalolat beradi. Yaqin kelajak zonasi bizga bolaning ertangi kunini, rivojlanishining dinamik holatini aniqlashga yordam beradi. Agar bola topshiriqni mustaqil ravishda bajara olsa, bu uning aktual taraqqiyot zonasini ko'rsatadi. Shu bilan birga L.S.Vigotskiy ta'lim-tarbiya jarayonida bir tomondan, bolaga kuchi yetmaydigan talablar qo'ymaslik kerakligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan esa, mustaqil tarzda bajara olishini bilsa, bola taraqqiyotini jamiyat talablariga mos ravishda, maqsadga muvofiq tarzda takomillashtirib borishi mumkin.

Bolaning rivojlanishi murakkab dialektik jarayondir. U taraqqiyotning turli yosh davrlarida o'zining sifat xususiyatlariga ega bo'ladi. Psixologiyada bir nechta yosh davrlari farqlanadi.

D.B.Elkonin bo'yicha yoshni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. Go'daklik davri - tug'ilgandan 1 yoshgacha.

2. Ilk bolalik davri - 1-3 yosh.

3. Maktabgacha yosh davri - 3-7 yosh.

3a. Kichik va o'rta maktabgacha yosh davri - 3 dan 4-5 yoshgacha.

3b. Katta maktabgacha yosh davri - 4-5 dan 6-7 yoshgacha.

4. Kichik maktab yoshi - 7 -yoshdan 11 yoshgacha .

5. O'smirlik yosh davri - 11- 15 yosh.

6. Ilk o'spirinlik davri - 16- 18 yosh.

Inson umrining barcha yosh davrlarini qamrab olgan davrlashtirish E.G'.G'oziyev, G.S.Abramova hamda xorij psixologlari Greys Krayg, Don Bokumning nazariyalarida keltiriladi.

E.G'.G'oziyev bo'yicha:

1. Chaqaloqlik va go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha.
2. Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
3. Maktabgacha yosh davri – 3-6 yoshgacha.
4. Kichik maktab yosh davri – 6- 10 yoshgacha.
5. O'smirlik davri – 10- 11 yoshdan 14- 15 yoshgacha.
6. Ilk o'spirinlik davri – 15 -18 yoshgacha.
7. O'spirinlik davri – 18- 22 yoshgacha (talabalik)
8. Yoshlik davri – 23-28 yoshgacha.
9. Yetuklik davri 1-bosqichi – 28- 35 yoshgacha.
10. Yetuklik davri 2 – bosqichi – 35 – 55 (60) yoshgacha.
11. Keksayish davri – 61 (56) – 74 yoshgacha.
12. Keksalik – 75- 90 yoshgacha.
13. Uzoq umr ko'ruvchilar – 90 dan yuqori.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, har bir yosh davri o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, xarakterli qarama- qarshiliklari, psixikaning sifat xususiyatlari, psixik jihatdan yangi hislatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida vujudga keladi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

29. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.

30. Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.

379. 2. Ashurova Sh. F. (2023) SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'IRISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>

380. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

381. Ashurova Sh.F. (2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF

EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL) <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)

382. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 363-368.

383. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 369-373.

384. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.

385. Karimova M.N. Ashurova.Sh.F, (2023) Professional ta'limda tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari. *Educational Research in Universal Sciences*. OAK. 369-373-b

386. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. *National Scientific Research International Journal natijalari* , 2 (3), 156-161.

387. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.

388. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi–jamiyat faravonligi asosi. *Finland academic research science publisher*, 1148-1151.

389. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 447-453.

390. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 35-37.

391. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 74-76.

392. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
393. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
394. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
395. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
396. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.
397. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
398. Ньёматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.
399. Ne'Matullayeva, S. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA О 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.
400. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.
401. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(6).
402. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).
403. Ньёматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.
404. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.
405. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные

тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43–46. Извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>